

---

ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ТАРИХ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ФАКУЛЬТЕТИ  
ИСЛОМ ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИГИ, ФАЛСАФА  
КАФЕДРАСИ

“ШАРҚ ТИЛЛАРИ ТАЪЛИМИ ВА БУХОРИЙЛАР МЕРОСИНИ  
ЎРГАНИШ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ”  
МАРКАЗИ

“АҲМАД ИБН ҲАФС КАБИР БУХОРИЙ  
МЕРОСИ ВА УНИНГ ИЛК ШАРҚ  
РЕНЕССАНСИ ҲАМДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ  
ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ЯРАТИШДАГИ  
ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ” МАВЗУСИДАГИ

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН  
ТЎПЛАМИ

2022 йил 16-17 июнь

Бухорон шариф – 2022

ochib, davlatning barcha ustunlari uchun ziyofat uyushtirdi. U barcha ulamolarga, lashkarboshilarga o'zining iltifotidan mamnun bo'lib: sarpo, qimmatbaho libosli otlar, tanxo, "tegirmon – har kimga o'z qadr-qimmatiga ko'ra berildi. Ular tomonidan har yili quyidagi miqdorda belgilanadi: tanobona chulra egasi to'qson tanga bo'lib, ikki yuz yigirma tanga bo'ldi; tanobona mirza-boshi (miqdorida) bir yuz o'ttiz tanga edi, endi ular uch yuz tanga bera boshladilar; tanabana jibachiga bir yuz sakson tanga to'rt yuz o'nta edi; tanabana qaravulbegi ikki yuz yigirmaga teng edi, hozir jami olti yuz tanga aniqlandi; tanabana mirohur uch yuz tanga edi, sakkiz yuz tanga bo'ldi<sup>1</sup>.

Eng baland Ark darvozasida vaqtincha turgan Mirzo Nasrullo parvonachi zudlik bilan qo'shbegi lavozimiga ko'tarilib, muhtaram amir Buxorodagi butun davlat hokimiyatini unga ishonib topshirdi. U jadidlar yo'lidan yurdi." Mirzo Nasrullo faqat o'zining xatti-harakati va qarashlarida o'zi bilan yakdil bo'lgan shaxslarigina lavozimga tayinlagan, unga rozi bo'lmaganlardan esa 132 kishini bo'shatgan<sup>2</sup>. Mirza Salimbekning siyosiy-huquqiy qarashlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning asarlarida davlatni mustahkam idora etishning eng asosiy yo'li bu - Buxoro amirligi bilan qo'shni davlatlar o'rtasida o'zaro siyosiy, madaniy, savdo-sotiq aloqalari ko'paytirish hamda o'zaro diplomatik munosabatlarni yanada tiklash zarur deb biladi. Ushbu masalada amir davlatdagi xizmatchilardan maslahat olmog'i darkor deb hisoblaydi.

### SADRIDDIN AYNIY ASARLARI BUXORO INQILOBINI TARIXINI O'RGANUVCHI MANBA SIFATIDA SH.O. NOSIROV

*Bux DU, Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi, II bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, Yosh buxoroliklar vakillaridan biri adib Sadridin Ayniyning "Buxoro inqilobi uchun materiallar" asari asosida XX asr boshlaridagi Buxoro amirligidagi siyosiy jarayonlar va 1920-yilgi inqilob va uning sabab va oqibatlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** qo'shbegi, gazeta, BXS, "Tarixi inqilobi fikri dar Buxoro", nozir, Mehnatkashlar tovushi, tarixnavislik

Sadridin Ayniy ko'plab tarixiy, badiiy va ilmiy asarlar yaratgan<sup>3</sup>. Ayniy o'zining tarixiy asarlarida Buxoro tarixining eng murakkab davrlaridan biri – mamlakatda islohotchilik g'oyalari va inqilobiy harakatlarning keng yoyilishi, ko'p asrlar davomida amalda bo'lgan davlat tuzumining tubdan o'zgarishi voqealarini o'z ko'rgan-kechirganlari asosida qalamga olgan. Shu bois bu asarlarni chetlab o'tib, o'sha davr tarixini yoritish mushkul.

Ayniy tomonidan yaratilgan ilk yirik tarixiy asar – "Tarixi inqilobi fikri dar Buxoro" ("Buxoroda fikriy inqilob tarixi") 1918-yilda tojik tilida yozilgan. Keyinchalik Ayniy bu asarning o'zbekcha qayta ishlangan variantini yaratib, unga Buxoro inqilobining tarixi degan nom berdi. Buxoro inqilobining tarixi bilan bir vaqtda Ayniy tojik tilida "Tarixi silsilayi Mang'it'iyai ki dar Buxoro hukm rondaand" ("Buxoroda hukm surgan Mang'it'lar sulolasi tarixi") nomli asar yozib, uni Shu'lai inqilob jurnalining 1920-yil sentyabrdan 1921-yil noyabrgacha bo'lgan oraliqda chiqqan 27 ta sonida chop etdi.

1923-yilda bu asar muallifning ba'zi bir o'zgartirish va to'ldirishlari bilan Ta'rix amironi Mang'it'iyai Buxoro ("Buxoro Mang'it amirlari tarixi") nomi ostida alohida kitob holida nashr

<sup>1</sup> Mirza Salimbek. Tarix-i Salimiy (istochinik po istorii Buxarskogo emirata). Perевod s persidskogo N.Norkulov-To'skent: Akademiya. 2009.

<sup>2</sup> Mirza Salimbek. Tarix-i Salimiy (istochinik po istorii Buxarskogo emirata). Perевod s persidskogo N.Norkulov-To'skent: Akademiya. 2009.

<sup>3</sup> Ularning bir qismini Sadridin Ayniy tojik tilida, qolganlarini o'zbek tilida, bir qator asarlarini ham tojik, ham o'zbek tillarida yozgan. Misol uchun, Qullar (G'ulomon) romani dastlab o'zbek tilida yozilib, keyin muallifning o'zi tomonidan tojikchaga o'girilgan bo'lsa, Margi sudxo'r (Sudxo'rning o'limi) hikoyasi dastlab tojik, keyin o'zbek tilida yozilgan.

bo'ldi<sup>1</sup>. Bulardan tashqari Ayniy "Qahramoni xalqi tojik Temur Malik", "Tojik xalqi qahramoni Temur Malik"), "Isyoni Muqanna" ("Muqanna isyoni") kabi tarixiy mavzudagi asarlarni ham yozgan. Ayniyning badiiy asarlari ham tarixiy asosga qurilgani bois "Odina", "Doxunda", "Qullar" ("G'ulomon"), "Maktabi Ko'hna" ("Eski maktab") singari roman va povestlari ham o'sha davr Buxoro tarixini o'rganishda muayyan darajada tarixiy manba bo'lib xizmat qila oladi<sup>2</sup>.

Buxoro Respublikasi hukumati inqilob tarixini yozish ishiga o'z faoliyatining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraganki, bolsheviklarning mafkuraga, eski tuzumni shafqatsiz tanqid ostiga olish borasidagi targ'ibot-tashviqot ishlariga behad katta ahamiyat berganlari tagzaminida bu tabiiy holdir. 1920-yil 24-sentyabrida yangi tashkil topgan Maorif nozirligining birinchi majlisida inqilob tarixini yozish uchun hatto maxsus komissiya tuzildi. Inqilob tarixini yoritish topshirilgan mualliflar orasida Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy ham bor edi.

Bu paytda Ayniy Samarqandda Shu'lai inqilob jurnalida ishlayotgan edi. Inqilobdan keyin jurnal tahririyati Buxorodagi vaziyat yuzasidan ma'lumot to'plash uchun bir necha kishidan iborat vakillarini Buxoroga jo'natadi. Ular qatorida Ayniy ham bo'lib, bu uning Buxoroga inqilobdan keyingi ilk safari edi. Mehmonlar 1920-yilning 16-noyabrida Buxoroga keldilar. Ayniy bu safari to'g'risida hikoya qilar ekan, Maorif nozirligi idorasiga kirganini va Maorif noziri Po'latzoda uni iliq qabul qilganini ta'kidlaydi. Aynan ushbu suhbat chog'ida Qori Yo'ldosh Po'lotov Ayniyga inqilob tarixiga doir kitob yozishni taklif etgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilish mumkin. Lekin ayrim faktlar Ayniyning bunday kitob yozishga ilgariroq kirishganidan dalolat berib turibdi.

1933-yilda yozgan bir maqolasida Ayniy Buxoro inqilobining tarixi asarining yaratilishiga to'xtalib, shunday ma'lumot beradi. "Men Buxoro inqilobi tarixining ko'p qismini 1918-1919-yillarda Samarqandda tojik tilida yozdim. Buxoro inqilobidan keyin Buxoro maorif nazorati Qori Yo'ldosh Po'lotov orqali mendan o'sha meteriallarni o'zbekchalashtirib berishimni iltimos qildi. Men 1920-yil noyabridan 1921-yil mayiga qadar o'sha tojik tilidagi materiallarni o'zbekchalashtirib va oxirini to'ldirib (1920-yil voqealari va inqilob g'alabasini unga kiritib) berdim, ammo bu kitob Buxoroda qoldi va chop bo'lmadi. O'rta Osiyoning milliy chegaralanishidan burunroq SSSR xalqlari nashriyoti o'rtoq To'raqulov orqali bu qo'lyozmani so'ratib oldi, 1926-yilda kitob bo'lib chiqdi".

Ushbu maqolada ham Ayniy asarining yozilish sanasi borasida adashganga o'xshaydi. Har holda, asarning so'z boshisida (4-bet) u 1920-yil 21-dekabr, xotimasida esa (571-bet) 1921-yil 23-mart sanasi bilan imzo chekkan. Qolaversa, 1920-yilning sentyabridan boshlab 1921-yil 5-fevraliga qadar Mehnatkashlar tovushi gazetasining bir necha sonida "Buxorodagi inqilobiy harakatning qisqacha tarixi" rukni ostida Buxoro inqilobining tarixining birinchi bo'lagiga kirgan boblarning hammasi, ikkinchi bo'lakning dastlabki bobi chop etilgan. Demak, Ayniy keyinchalik Buxoro inqilobining tarixi nomini olgan kitobining ilk boblarini yozishga Buxoro hukumatining taklifidan ilgariroq kirishgan, biroq aynan fahonligi noma'lum. Ayni paytda shuni ham e'tirof etish kerakki, Mehnatkashlar tovushida bosilgan materialni Ayniy avval boshdan alohida bir kitobning qismi o'laroq rejalashtirib yozgan, deyishga asosimiz yo'q.

Garchi qat'iy xulosa chiqarish qiyin bo'lsada, quyidagilarni taxmin qilish mumkin. Inqilob arafasida yoki uning birinchi kunlari ya'ni 1920-yil avgust oyining oxirlarida Ayniy Mehnatkashlar tovushi gazetasini uchun turkum maqolalar yoza boshladi. Keyinchalik, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXS) hukumatidan rasmiy buyurtma olgach, Ayniy Tarixi "Inqilobi

<sup>1</sup>Sadriddin Ayniy. Tarixi amironi mang'itviy Buxoro. Toshkent, 1923. Ayniyning bu asari va ayrim tarixiy qarashlari haqida qarang: Anke f (inglizchasini ham yoz). Anke fon Kyugelsgen. Legitimatsiya sredneaziatskoy dinastii mangitov v proizvedeniyax ix istorikov (XVIII-XIXvv.). Almati, 2004, 409-422-betlar).

<sup>2</sup>Sadriddin Ayniy hayoti, faoliyati va asarlariga oid adabiyotlar haqida qarang: Ch. Azizqulov, Z. Mullochonova. Fehrasti asarhoi S. Ayniy va adabiyoti oid ba o'to oxiri soli 1961. Dushanbe, 1963; Z. Mullochonova, N. Fayzulloyev. Fehrasti asarhoi S. Ayniy va adabiyoti oid ba o'. solhoi 1962-1976. Dushanbe, 1978; Istoriografiya obshestvennix nauk v Uzbekistane. Bio-bibliograficheskiy ocherk/ Sostavitel' B.V. Lumin. Tashkent, 1974, 77-79 betlar.

fikri dar Buxoro” asarini qayta ishlab va to’ldirib, jumladan, Mehnatkashlar tovushi gazetasida chop bo’lgan mazkur turkum maqolalarini unga qo’shib, ushbu o’zbek tilidagi asarini yaratgan va unga Buxoro inqilobining tarixi deb nom bergan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayniy S. Ta’rixii amironi mang’itiiyai Buxoro. / Kulliyot. 16 jild. Jildi – 10. – Dushanbe: 1966.
2. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar // Asarlar. Sakkiz tomlik.
3. Ayniy S. Ta’rixii inqilobi Buxoro. – Dushanbe: Matbuot, 1987.
4. Ayniy S. Qisqacha tarjima holim. – Toshkent: O’z SSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.
5. Ayniy S. Esdaliklar (I-II qismlar) // Asarlar. Sakkiz tomlik. V-tom. – Toshkent: O’z SSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
6. Ahmad Maxdumi Donish. Risola yo muxtasare az ta’rixii saltanati xonadoni mang’itiiya. – Stalinobod: Nashrdavtoj, 1960.
7. I-tom. – Toshkent: O’z SSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1963.

#### MUHAMMAD MUNSHIY VA UNING “TARIXI MUQIMXONIY” ASARI HAQIDA

D.M. JAMOLOVA

*Buxoro davlat universiteti t.f.f.d, dotsent*

SH. SAFOYEVA

*Buxoro davlat universiteti magistranti*

**Аннотация:** Ushbu maqolada tarixnavis Muhammad Munshiy va uning “Tarixi Muqimxoniy” asari, Buxoro xonligida Shayboniy va Ashtarxoniy hukmdorlar, ularning olib borgan siyosati tarixshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlili ko’rib o’tiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается творчество историка Мухаммада Мунши и его труд «История Муқимхани», правители Шайбани и Аштархани в Бухарском ханстве, их политика с точки зрения историографии и источниковедения.

**Annotation:** This article discusses the work of historian Muhammad Munshi and his work “History of Muqimkhani”, the analysis of the rulers of Shaibani and Ashtarkhani in the Bukhara Khanate, their policy from the point of view of historiography and source studies.

Barcha tarixiy asarlar singari Tarixi Muqimxoniy asari ham dunyoni yaratuvchi zot bo’lmish Alloh Taologa hamdlar aytish bilan boshlanadi: Mehrli va rahmdil Alloh nomi bilan! Fazl ato etuvchi ehson sohibi qadri ulug’ bo’lsin. Har bir narsada uning mo’jizasi bor. Tanlangan elchi, qismat sultoni Muhammad Mustafu hazratlari Allohga eng yaqin kishidir.

“O, rahmdil Rabbii yaxshiliklarining namoyon bo’lishi! Buyuk Qur’on sening kamolingning elchisidir. Isming Muhammad, qadring esa Mahmuddir !

Biz odam o’g’illarini ulug’laymiz va biz ularni o’zimiz yaratgan ko’p narsadan ustun qo’ydik. “Ulug’ Alloh hech kimga o’xshatilmas, yagonadir. Rabbim qaysi bir lahzada bo’l deganki, ikki dunyoni yaratgan. ” Janobi hazratlari yoshligining gullab yashnaganiga qaramay, diniy farzlarni ado etib, baxtli soatlarining salmoqli qismigina qolganini bilardi. Davlat manfaatlarini, fuqarolarning ehtiyojlariga va adolatga, mashhur hukmdorlarga bag’ishlangan kitobimni va tarixiy yilnomalarni (buyuk hukmdorlar haqida, ulug’vor donishmandning ko’rsatmalariga itoat qilish uchun) kutilmaganda muruvvatli nigoh meng qadaldi. “Badbaxt, ojiz va noloyiq banda, bandalarning eng pasti Xoja Baqo o’g’li Muhammad Yusuf Munshiy, ikklasini ham Alloh rahmatiga olsin. Ularni va men turli tarixiy asarlarda mavjud bo’lgan o’tkan kunlardagi voqea va tafsilotlarning tavsifini umumlashtirish uchun to’g’ridan- to’g’ri malumot oldim. Buzanjirxon davridan to dunyoni zabt etuvchi Chingizxon va uning avlodlari, mo’g’ul xonlari tomonidan yurtlarning egallanishi ayniqsa, hukmdor shayboniyxon va uning avlodlari, Abdulmo’minxonning o’ldirilishi bilan bog’liq voqealar bayoni berilgan. Bundan tashqari adolat va rahm –shavqat ruhoniysi Jonibek Muhammad ashtarxoniyxlarning birinchi hukmdori bo’lib, tarix faniga alohida ahamiyat berganligi haqida tasvirlar ham mavjud. Jonibek sulton buyuk

Ахмад ибн Ҳафс Кабир ал-Бухорий мероси ва унинг илк Шарқ ренессанси ва Ислом фалсафаси илмий-назарий асослари яратилган ўрни ва аҳамияти

Jamolova D.M. Abdulloyev S.S.	XIX asr oxiri xx asr boshlarida Buxoro amirligi ta'lim tizimida eskilik tarafdorlari va jadid maktablari o'rtasidagi kurash mufti Muhammad Ikrom donla misolida	257
Bo'stonova Z.B.	"Tarixi Salimiy" asarida davlat amaldorlari tavsifi	259
Nosirov SH.O'.	Sadriddin Ayniy asarlari buxoro inqilobini tarixini o'rganuvchi manba sifatida.	261
Jamolova D.M. Safoyeva SH.	Muhammad Munshiy va uning "Tarixi Muqimxoniy" asari haqida	263
Sobirov A.B.	Академик А. Мухаммаджонов – Бухоро тарихи tadqiqotchisi	266
Jumaev M.	Somoniylar va Qoraxoniylar davri siyosiy hayotida Buxoroning o'imi	269
Temirova G.	Somoniylar davrida ilm-fan, ta'lim va me'morchilik	271
Sharopov D.	Abdullaxon tashqi siyosatida xo'ja islom Jo'yboriyning tutgan o'imi.	273
Beshimov Maqsud	Mang'itlar davrida Buxoroda madaniy hayot (me'morchilik, adabiyot va san'at).	275
Абдуллаева Н.	Садриддин Айний – йирик жамоат арбоби ва маърифатпарвар адиб	277
Алламов А.А.	Моҳитобон ёхуд Хўжа Ориф Ревгарий маънавияти	279
Алламов А.А. Жўраев Ш.Ф.	Тасаввуф ва аёл	280
Murtozayev Sh.B.	Shihobuddin as-Suhravardiy asarining O'rta Osiyodagi bir sharhi xususida	282
Жаббарова Х.	Шарқ фалсафасида гендер тенглик ҳақида қарашлар	284
Qarshiyeva D.E.	Yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatning o'imi	286
Б.Х. Каримов	Тасаввуф таълимотида руҳий камолот масаласи	288
Нурматова Н.У.	Миллий меросимизда "Хуш дар дам" рашҳаси	290
Раҳмонова М.	Ислом моҳияти Фитрат мажозий талқинида.	293
Muhammadiyev L.G'.	Yoshlar ongida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unlashuvida zamonaviy innovatsion yondashuvlar	296
Бахриев О.А.	Ҳадис султонининг фикхий қарашлари	299
Мухаммеджанова Л.А. Ғафурова Ш.Н.	Жамият ривожига шахсий тарбиянинг аҳамияти ва бу ҳақида шарқ фалсафасидаги фикрлар	303
Элмуротов Ж.	Ҳадисшунослик илмида Имом ал-Бухорийнинг тутган ўрни.	305
Даурбекова И.	"Саҳиҳул бухорий" – устоз ўғити билан яратилган асар.	308
Тешаев Н.Н.	Абу Ҳафс Кабир-Имом Бухорийнинг маънавий устози	314
Ҳамидов З.Ш.	"Пайғамбарлар тарихи" - амалий ахлоқ тақомилли ифодаси	316
Yaxshimurodova N.	Islom olamining eng buyuk muhaddislari va ularning ilmiy me'rosini o'rganish	322
Маҳмудов Р.Ж.	Ёшларда умуминсоний қадриятларни "ахлоқий муҳсиний" асарини ўргатишнинг замонавий инновацион ёндашуви	324
Мамиров А.Н.	Ёшлар онгида толерантлик тушунчасини шакллантиришнинг миллий қадриятларимизни тақомиллаштиришдаги роли	327
СН.А. Azimova	Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ahmad yassaviy merosining tutgan o'imi	331
Жўраева Д.Ж.	"Бобурнома" асарининг ёшларнинг маънавий-ахлоқий дунёсини шакллантиришдаги аҳамияти.	333
Бобомуродов Э. Жовлиев Ж.	Янги Ўзбекистон ёшлари онгида миллий ва умуминсоний қадриятларни шакллантиришга диний ва дунёвий bilimларнинг ўрни ва роли	336
Мамашкуров Б.Б.	Бухоро фикх мактаби ва унда ёзилган фатво асарлари	340
Гуламова М.Т.	Ахмад Зиёуддин ал - Кумушхонавийнинг "Ромузул-аҳодис" асарининг ҳадисшуносликдаги ўрни	344
Xolova U. Temirov F.U.	Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo va uning noyob kutubxonasi.	347
Раупов С.С.	Шарқ ва Ғарб ренессанси: умумийлик ва ўзига хослик	349
Jamolova M.	Farhod Qosimov - Buxoro tarixi tadqiqotchisi	352
Эшпулатов И.С.	Абу Наср Фаробий фалсафаси	354